

IQTISODIYOTDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH ORQALI YOSHLAR BANDLIGINI TA'MINLASH CHORA-TADBIRLARI

Sherzod Shavkatovich Sharipov

Bank-moliya akademiyasi dotsenti v.b., PhD.

E-mail: sherzod@shavkatovich.uz., Tel: +99890-346-8777

Sardor Sa'dullo o'g'li Abdullayev

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti magistranti

E-mail: asardor760@gmail.com., Tel: +99894-543-0889

Annotatsiya: Mazkur maqolada iqtisodiyotda sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash orqali yoshlar bandligini ta'minlash masalalari tahlil qilingan. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sun'iy intellektning mehnat bozoriga ta'siri hamda ish izlovchilar va ish beruvchilar o'rtasidagi moslikni aniqlashdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, yoshlar bandligini oshirishga qaratilgan davlat siyosati va amaliy chora-tadbirlar ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijasida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish yoshlar bandligini ta'minlashning samarali vositasi ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, raqamli iqtisodiyot, yoshlar bandligi, mehnat bozori, bandlik mexanizmlari, innovatsion texnologiyalar, platforma iqtisodiyoti.

Globallashuv jarayonlari chuqurlashib borayotgan hozirgi davrda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ayniqsa, sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish hamda boshqaruv tizimlarida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirib, mehnat bozori mexanizmlarini qayta shakllantirmoqda. Ushbu jarayonlar natijasida yangi kasb va malakalar paydo bo'lib, mavjud ish o'rinlariga qo'yiladigan talablar keskin o'zgarib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasida demografik holat yoshlar ulushining yuqoriligi bilan tavsiflanadi. 2026-yil holatiga ko'ra mamlakat aholisi 38 milliondan ortiq bo'lib, uning 9,5 million nafari yoki qariyb 25 foizini yoshlar tashkil etadi. Har yili mehnat bozoriga 600 ming nafardan ortiq yoshlar kirib kelayotgani esa bandlik masalasini dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammo sifatida shakllantirmoqda. Shu bilan birga, mavjud tahlillar yoshlarning 69 foizida nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar o'rtasida tafovut mavjudligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, xalqaro ekspertlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan asosiy demografik o'zgarishlar sababli ochilgan imkoniyatlarni o'rganmoqda. Mamlakat tegishli iqtisodiy va ijtimoiy siyosat tanloviga duch kelmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, demografik dividendlarni olish birinchi navbatda bolalar va yoshlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalarga ustuvor ahamiyatga ega.

Mazkur sharoitda yoshlar bandligini ta'minlashda zamonaviy texnologiyalar, xususan sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Chunki ushbu texnologiyalar orqali mehnat bozoridagi talab va taklif o'rtasidagi nomutanosiblikni kamaytirish, ish izlovchilarni mos ish o'rinlari bilan ta'minlash hamda bandlik jarayonlarini optimallashtirish imkoniyati mavjud.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda yoshlar bandligini ta'minlashda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan integratsiyalashgan raqamli bandlik platformasini yaratish konsepsiyasi ishlab chiqilgan. Ushbu platforma ish

izlovchilar va ish beruvchilar o'rtasidagi moslikni aniqlashda algoritmik tahlil usullariga asoslanadi. Tadqiqotda norasmiy sektorda faoliyat yuritayotgan yoshlarni aniqlash, ularni rasmiy iqtisodiyotga jalb etish hamda ijtimoiy himoya tizimiga integratsiya qilish bo'yicha yangi yondashuvlar ishlab chiqilgan. Shuningdek, sun'iy intellekt asosida ishlovchi tizimlar orqali yoshlarning kasbiy kompetensiyalarini baholash va individual tavsiyalar berish mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Hozirgi kunda yoshlar bandligini ta'minlash iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mehnat bozorida talab va taklif o'rtasidagi nomutanosiblik yoshlar ishsizligining asosiy sabablaridan biridir. Bu holat ta'lim tizimi va ishlab chiqarish sektori o'rtasidagi uzviy bog'liqlikning yetarli darajada shakllanmaganligi bilan izohlanadi. Sun'iy intellekt texnologiyalari ushbu muammolarni hal etishda samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu texnologiyalar katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash, ularni tahlil qilish va optimal qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Xususan, ish izlovchilarning bilim darajasi, malakasi va tajribasi tahlil qilinib, ularga mos ish o'rinlari tavsiya etilishi mumkin. Raqamli platformalar orqali ish izlovchilar va ish beruvchilar o'rtasidagi axborot almashinuvi tezlashadi. Bu esa ishga joylashish jarayonini soddalashtiradi va samaradorlikni oshiradi. Natijada mehnat bozori infratuzilmasi yanada takomillashadi.

O'zbekiston Respublikasida yoshlar bandligini ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish maqsadida imtiyozli kreditlar ajratilmoqda. Xususan, o'zini o'zi band qilgan yoshlar uchun 100 mln so'mgacha, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun 500 mln so'mgacha hamda yuridik shaxslar uchun 5 mlrd so'mgacha kredit ajratilishi belgilangan. Ushbu moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, startap loyihalarni rivojlantirishga qaratilgan venchur fondlar orqali 500 mln so'mdan 5 mlrd so'mgacha investitsiyalar ajratilishi ko'zda tutilgan. Bu esa yoshlarni innovatsion faoliyatga jalb etish va yangi ish o'rinlari yaratishga zamin yaratadi. "Yangi O'zbekiston yoshlari – 2030" strategiyasi doirasida har yili kamida 600 ming yoshning bandligini ta'minlash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan. Strategiyada yoshlarni zamonaviy kasblarga o'qitish, ularning innovatsion salohiyatini rivojlantirish hamda tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

Shu maqsadda, O'zbekistonda 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar ulushi umumiy aholining qariyb 60 foizini tashkil etishi demografik dividend sifatida qaralishi, hamda inson kapitalini rivojlantirishga e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatmoqda.

Shu maqsadda qabul qilingan "Yangi O'zbekiston yoshlari – 2030" strategiyasi keyingi besh yillikda oldimizda turgan dolzarb va ustuvor masalalarni amalga oshirish orqali inson kapitalini rivojlantirish yo'nalishidagi muhim qadam hisoblanadi. Mazkur strategiya – o'rta muddatli strategik muhim hujjat bo'lib, kelgusi 10-15 yillikda inson kapitalini rivojlantirish orqali iqtisodiy qiymat yaratishi bilan e'tiborga molikdir.

Sun'iy intellekt texnologiyalarini ushbu jarayonlarga integratsiya qilish orqali bandlik tizimining samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Xususan, davlat axborot tizimlari, elektron hukumat platformalari va ochiq ma'lumotlar bazalarini yagona tizimga birlashtirish orqali milliy raqamli bandlik platformasini yaratish imkoniyati mavjud. Shu bilan birga, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishda ma'lumotlar xavfsizligi va shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki raqamli tizimlar orqali katta hajmdagi ma'lumotlar qayta

ishlanadi. Shu sababli ushbu texnologiyalarni joriy etishda huquqiy-me'yoriy bazani takomillashtirish zarur.

Shu bilan birga, yoshlarning raqamli savodxonligini oshirishga qaratilgan “Bir million dasturchi” amalga oshirilayotgani, shuningdek “Besh million sun’iy intellekt yetakchilari” loyihasiga start berilishi mehnat bozoriga kirib kelishi kutilayotgan yoshlarda mazkur yo‘nalishda ko‘nikmaning shakllanishiga zamin yaratmoqda.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt texnologiyalarini iqtisodiyotga joriy etish yoshlar bandligini ta’minlashning samarali vositasi hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar orqali mehnat bozoridagi nomutanosibliklarni kamaytirish, yoshlarni zamonaviy kasblarga yo‘naltirish va ularning iqtisodiy faolligini oshirish mumkin. Shuningdek, raqamli platformalarni joriy etish orqali bandlik tizimini modernizatsiya qilish va iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishga erishiladi. Shu bois sun’iy intellekt texnologiyalaridan keng foydalanish zamonaviy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Yangi O‘zbekiston yoshlari – 2030” strategiyasi., O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 20-apreldagi PF–66-sonli Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-8155028>
2. “Strategiyani 2026-2027-yillarda amalga oshirish hamda yoshlar bandligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 20-apreldagi PQ–148-sonli qarori. <https://www.lex.uz/ru/docs/-8154679>
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 2022-yil 26-oktabrdagi 617-son qarori., Yoshlarning zamonaviy bilim va kasb-hunar egallash imkoniyatlari kengaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida. // <https://lex.uz/docs/-6252503>
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 2025-yil 31-dekabrdagi 849-son qarori., Yoshlarni IT sohasiga jalb qilish, ularning raqamli bilim va ko‘nikmalarini oshirish orqali yuqori daromadli kasblarga yo‘naltirish chora-tadbirlari to‘g‘risida // <https://lex.uz/uz/docs/-7963118>
5. Aholi soni va demografik ko‘rsatkichlar bo‘yicha rasmiy ma’lumotlar. Milliy statistika qo‘mitasi rasmiy sahifasi // <https://stat.uz/uz/>
6. Generation 2030 Uzbekistan || Investing in children and young people to reap the demographic dividend // <https://www.unicef.org/uzbekistan/en/reports/generation-2030-uzbekistan>